

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

MADRAHIMOV KAMOLIDDIN RO‘ZIMBAYEVICH

**IQTISODIY SOHALARDAGI BOSHQARUV TIZIMINI INNOVATSION
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Madrahimov Kamoliddin Ro‘zimbayevich

Iqtisodiy sohalardagi boshqaruv tizimini innovatsion texnologiyalar asosida
takomillashtirish.....3

Мадрахимов Камолиддин Рузимбаевич

Совершенствование системы управления в отраслях экономики на
основе инновационных технологий 27

Madrakhimov Kamoliddin Ruzimbayevich

Improving the management system in economic sectors based on innovative
technologies..... 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

MADRAHIMOV KAMOLIDDIN RO‘ZIMBAYEVICH

**IQTISODIY SOHALARDAGI BOSHQARUV TIZIMINI INNOVATSION
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Iqt4250
raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Xalqaro Nordik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida
(www.tsue.uz) va "Ziynet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Djurabaev Otabek Djurabaevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ikramov Murat Akramovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Norov Asror Egamberdiyevich
iqtisodiyot fanlari doktori

Yetakchi tashkilot

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi
DSc. 03/30 12.2020.116.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "23" sentabr kuni
soat 16:00 da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49.
Tel.: (99871) 239-01-49, faks: (99871) 239-41-23; ye-mail: tdiu@sue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin
(1243 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49
Tel.: (99871) 239-28-75; faks: (99871) 239-28-75.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "2" 9 kuni tarqatildi.

(2025-yil "2" 9 daqi 43 raqamli reyestr bayonnomasi).



G.Q. Abduraxmanova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
i.f.d., professor

B.O. Tursunov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotihi vazifasini bajaruvchisi, DSc., professor

SH.A. Allayorov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida iqtisodiy sohalarning boshqaruv tizimlarini sun'iy intellekt, katta ma'lumot (big data), bulutli hisoblash, blokcheyn hamda tarmoqlashgan sensor infratuzilmasi (IoT) kabi innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish resurslar taqsimotini algoritmik optimallashtirish, transaksiya va monitoring xarajatlarini pasaytirish hamda real vaqtdagi raqamli qarorlar vositasida korxonalarning operatsiya samaradorligini keskin oshirish imkonini beradi. Masalan, "ta'minot zanjirlarini raqamlashtirgan sanoat subyektlarida mehnat unumdorligi o'sishi dunyo miqyosida o'rtacha 7,6 %ga yetib, IKT sektori umumiy iqtisodiyotdan uch barobar tez sur'atda kengaydi"¹. Demak, boshqaruv tizimlarini ilg'or raqamli texnologiyalar bilan yangilash iqtisodiy tarmoqlar miqyosida raqobatbardoshlik, barqarorlik va qiymat zanjiri integratsiyasini kuchaytiruvchi hal qiluvchi omil bo'lib, uning institutsional qo'llab-quvvatlanishi global iqtisodiy daromadlar arxitekturasini yana-da diversifikatsiyalash va xavflar qarshisida chidamli qilishni ta'minlaydi.

Jahonda globallashtirish jarayonlarining jadallashuvi sharoitida iqtisodiy sohalardagi boshqaruv tizimlarini innovatsion texnologiyalar yordamida takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar ko'lamini kengayib bormoqda. Generativ sun'iy intellekt va katta ma'lumot tahlili asosida avtonom qarorlarni qo'llab-quvvatlovchi algoritmlarni ishlab chiqish, raqamli egizaklar (digital twins) va kiber-fizik tizimlar orqali resurslar agnomiyasini real vaqtda optimallashtirish, ishlab chiqarish va logistika zanjirlarida prognozlash qulayligini oshirish, blokcheyn va DLT texnologiyalari bilan ta'minot zanjiri va moliyaviy hisob-kitoblarda shaffoflik hamda xavflarni kechiktirmay aniqlash imkonini beruvchi modellarni joriy etish, sektorlararo axborot oqimini integratsiyalash va xarajatlarni kamaytirish, kiberhavsizlik, ma'lumot boyligi va ESG-ko'rsatkichlarni monitoring qilish bo'yicha ko'p tarmoqli metodikalarni ishlab chiqish, yuqori qiymatli ma'lumot ekotizimlarida ma'lumot boshqaruvi arxitekturasini qayta ko'rib chiqish bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy sohalardagi boshqaruv tizimini innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish borasida qator strategik hujjatlar va dasturlar belgilangan vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda. Xususan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi mamlakatni Markaziy Osiyodagi IT-xabga aylantirish, E-hukumat indeksining kuchli 30 taligiga kirish hamda raqamli infratuzilma, tarmoqlar transformatsiyasi, kadrlar salohiyati va xalqaro hamkorlikka doir olti asosiy yo'nalish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni nazarda tutadi; ushbu yondashuv 2030-yilgacha raqamli iqtisodiyot ulushini barqaror kengaytirishga qaratilgan². Bu borada infratuzilmaviy kengayish, tarmoqlararo raqamli "yo'l xaritalari", normativ-huquqiy modernizatsiya va inson kapitaliga sarmoya yo'naltirilgan integral islohotlar O'zbekistonda innovatsion boshqaruv modellarini ishlab chiqish, iqtisodiy xavflarga chidamlilik va global raqobatbardoshlikni ta'minlashga strategik baza yaratayotganini ko'rsatadi. Raqamli transformatsiya

¹ OECD (2024), *OECD Digital Economy Outlook 2024 (Volume 1): Embracing the Technology Frontier*, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/a1689dc5-en>.

² caict_uzbekistan_digital_economy_overview_vision_2030

tamoyillari va kosmik monitoring imkoniyatlarini hisobga olgan holda, qishloq xo'jaligi yerlarini samarali boshqarish va monitoringini olib borish hamda sifat omillarini inobatga olgan holda biznes-jarayonlar injiniringi amalga oshirish, yer maydonlarining aniq chegaralari belgilash va haqiqiy ekin maydonlari aniqlash jarayonini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali o'rmon fondi yerlarida noqonuniy qurilish obyektlarini aniqlash, ko'chmas mulk bozorida shaffoflikni oshirish hamda noqonuniy binolar va inshootlarni aniqlash, yer resurslarini holatini muntazam kuzatish, suv taqsimoti jarayonlarini avtomatlashtirish maqsadida suv resurslaridan oqilona foydalanish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va umumiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun kosmik monitoring texnologiyasi asosida kompleks uslubiy tizim ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida", 2021-yil 1 apreldagi PF-6198-son "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risida", 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston-2030" Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2022-yil 23-noyabrdagi PQ-429-son "Kosmik tarmoqni yana-da rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 30-noyabrdagi 688-son "Kosmik tarmoqni yana-da rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 20-maydagi 274-son "Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi faoliyatini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda soha faoliyatiga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlariga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Iqtisodiyot sohalarida kosmik texnologiyalarni qo'llash orqali boshqaruv tizimini takomillashtirish borasida bir qator xorijlik olimlar izlanish va tadqiqot olib borganlar. Ular qatoriga Cuca B., Dandjermund D., Shipman R., Keith W., Evan Linck, Bhavya Lal, Rachel Y. Wei kabilarni kiritish mumkin³.

MDH davlatlari olimlaridan B.Balter, V.Yegorov, Y.Korolyev, V.Bondur, B.Vinogradov, Y.Izrael tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan⁴.

³ Cuca B., Tramutoli V., How Can Space Make a Difference for the Agriculture Sector – Nereus., 2016

⁴ Bondur V.G.; Chimitdorzhiev T.N.; Dmitriev A.V. The Induced Seismicity Effect in Morocco Caused by a Reduced Aquifers Volume according to Stacking-InSAR Method and Gravimetric // Data Doklady Earth Sciences, 2024, Vol. 517, Part 1, pp. 1269–1275. DOI: 10.1134/S1028334X24601809

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan tomonidan bu yo‘nalishda ayrim jihatlar R. G‘aniyev, B. Bozorov dissertatsiya ishlarida o‘rganilgan.

Yuqoridagi olimlar tadqiq qilinayotgan muammo bo‘yicha ko‘plab ishlarni amalga oshirib, bir qator natijalarga erishganlar. Ammo ularning ilmiy ishlari kosmik texnologiyalari qo‘llanila boshlagandan so‘ng, sohadagi boshqaruv tizimini takomillashtirish masalalari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Shu sababli, iqtisodiy sohalardagi boshqaruv tizimini innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish bo‘yicha tadqiqot olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining tadqiqot olib borilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Xalqaro Nordik universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq PZ-20170928323-sonli “Mintaqalar eksport salohiyatini oshirishda investitsiya dasturlaridan samarali foydalanish” mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi iqtisodiy sohalarda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali boshqaruv samaradorligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Iqtisodiy sohalardagi boshqaruv tizimini takomillashtirishning nazariy asoslari-uslubiy asoslarini o‘rganish;

Innovatsion texnologiyalar asosida iqtisodiy sohalardagi boshqaruv tizimini takomillashtirishga ta‘sir etuvchi omillar tahlilini o‘rganish;

Innovatsion texnologiyalar asosida iqtisodiy sohalardagi boshqaruv tizimini takomillashtirishning rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish;

O‘zbekistonning iqtisodiy sohalardagi boshqaruv tizimini takomillashtirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning hozirgi holati tahlil qilish;

Iqtisodiy sohalardagi boshqaruv tizimini takomillashtirishdagi asosiy muammolarni o‘rganish;

O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida boshqaruv tizimini innovatsion texnologiyalar monitoringi asosida takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

Iqtisodiy sohalardagi boshqaruv tizimini modellar asosida takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

O‘zbekiston Respublikasining o‘rganilayotgan iqtisodiy jarayonlar ko‘rsatkichlarini boshqarish tizimini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

Innovatsion texnologiyalar asosida iqtisodiy sohalardagi boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy sohalari, xususan, qishloq xo‘jaligi, suv xo‘jaligi, o‘rmon xo‘jaligi, ekologiya, yer munosabatlari sohalari belgilangan.

Tadqiqotning predmeti iqtisodiy sohalarda kosmik texnologiya faoliyati orqali boshqaruv samaradorligini oshirish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy tadqiqot ishidagi muammoni o‘rganish uchun mantiqiy fikrlash, tizimli yondashuv, iqtisodiy taqqoslash, statistik tahlil, qiyosiy va tizimli tahlil hamda ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ko'chmas mulk bozorida tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish va iqtisodiy shaffoflikni ta'minlashda boshqaruv tizimidagi innovatsion texnologiyalar asosida noqonuniy qurilish obyektlarini aniqlash va ularni avtomatik monitoring qilish mexanizmlarini joriy etish orqali mahalliy byudjet tushumlarini 12-15%ga oshirish taklifi asoslangan;

yer va suv resurslaridan barqaror foydalanishni boshqarishda innovatsion texnologiyalar yordamida yerlarning meliorativ holati va suv taqsimotini kuzatish aniqligini oshirish, suv tanqisligi va sho'rlanish holatlarini oldindan bashorat qilish orqali qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish ($ICH_{Sqx} = 10-13\%$) va yo'qotishlarni kamaytirish ($YK_{qx} = 7-9\%$)ning miqdoriy chegaralari asoslangan;

uslubiy yondashuvga ko'ra, "iqtisodiy sohalardagi boshqaruv tizimida monitoring" tushunchasining iqtisodiy mazmuni iqtisodiy jarayonlar, resurslar harakati va faoliyat natijalarini tizimli ravishda kuzatish, baholash va tahlil qilish orqali boshqaruv qarorlarini tezkor, asosli va maqsadli qabul qilishni ta'minlashga xizmat qiluvchi, ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va prognozlash asosida iqtisodiy faoliyatning samaradorligini oshirishga qaratilgan doimiy va interaktiv axborot-talqin jarayoni nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

O'zbekistonda innovatsion texnologiyalar asosida iqtisodiy sohalardagi boshqaruv tizimini takomillashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning o'zaro bog'liqligini ifodalovchi ekonometrik model asosida tabiiy resurslardan samarali foydalanish darajasining 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda kosmik texnologiya faoliyati orqali boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi mazmunini nazariy jihatdan o'rganilgan;

O'zbekiston iqtisodiyotida kosmik texnologiya faoliyati orqali boshqaruvni hozirgi holatini tahlil qilingan;

ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda kosmik texnologiya faoliyati orqali boshqaruv samaradorligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan;

ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda kosmik texnologiya faoliyati orqali boshqaruv samaradorligini oshirishda innovatsion imkoniyatlardan foydalanish bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda kosmik texnologiya faoliyati orqali boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda kosmik texnologiya faoliyati orqali boshqaruv samaradorligini oshirishning iqtisodiy-matematik modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining Axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamenti rasmiy ma'lumotlari, shuningdek, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan nazariy va amaliy ahamiyatga ega taklif va tavsiyalardan iqtisodiy sohalarda kosmik texnologiyalardan foydalangan holda boshqaruv tizimini muammolari bo'yicha olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati iqtisodiyot sohasida kosmik texnologiyalarni qo'llanishiga doir dasturlar va strategik rejalarni ishlab chiqish, samarali boshqaruv tizimini shakllantirishda yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Iqtisodiy sohalarda innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar asosida:

ko'chmas mulk bozorida tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish va iqtisodiy shaffoflikni ta'minlashda boshqaruv tizimidagi innovatsion texnologiyalar asosida noqonuniy qurilish obyektlarini aniqlash va ularni avtomatik monitoring qilish mexanizmlarini joriy etish orqali mahalliy byudjet tushumlarini 12-15%ga oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi "Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi faoliyatini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 274-son qarorida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining Axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2025-yil 1-iyuldagi 37-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilik joriy etilishi iqtisodiy sohalarda shakllantirilayotgan ma'lumotlarni aniqlik darajasi 85-90 foizgacha oshib, bu o'z yo'lida ma'lumotlarni yig'ish uchun ketgan sarf xarajat va vaqtni kamaytirgan;

yer va suv resurslaridan barqaror foydalanishni boshqarishda innovatsion texnologiyalar yordamida yerlarning meliorativ holati va suv taqsimotini kuzatish aniqligini oshirish, suv tanqisligi va sho'rlanish holatlarini oldindan bashorat qilish orqali qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish ($ICH_{Sqx} = 10-13\%$) va yo'qotishlarni kamaytirish ($YK_{qx} = 7-9\%$)ning miqdoriy chegaralaridvn foydalanish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-dekabrda 794-son qarorida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining Axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2025-yil 1-iyuldagi 37-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2024-yil yanvar-oktyabr oylarida 8 ta viloyatda 56 521 gektar maydonning foydalanilmayotgani aniqlangan hamda xuddi shu davrda 86 107 gektar zaxira yerlaridan noqonuniy foydalanish bilan bog'liq 27 266 ta holat qayd etilgan;

uslubiy yondashuvga ko'ra "iqtisodiy sohalardagi boshqaruv tizimida monitoring" tushunchasining iqtisodiy mazmunini iqtisodiy jarayonlar, resurslar harakati va faoliyat natijalarini tizimli ravishda kuzatish, baholash va tahlil qilish orqali boshqaruv qarorlarini tezkor, asosli va maqsadli qabul qilishni ta'minlashga xizmat qiluvchi, ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va prognozlash asosida iqtisodiy faoliyatning samaradorligini oshirishga qaratilgan doimiy va interaktiv axborot-talqin jarayoni nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Ijro menejmenti" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

rektorining 2023-yil 26-iyundagi 211-son buyrug'iga asosan). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va prognozlash asosida iqtisodiy faoliyatning samaradorligini oshirishga qaratilgan doimiy va interaktiv axborot-talqin jarayoni nuqtai nazaridan takomillashtirilgan "iqtisodiy sohalardagi boshqaruv tizimida monitoring" tushunchasining iqtisodiy mazmuni yuzasidan nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

O'zbekistonda innovatsion texnologiyalar asosida iqtisodiy sohalardagi boshqaruv tizimini takomillashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning o'zaro bog'liqligini ifodalovchi ekonometrik model asosida tabiiy resurslardan samarali foydalanish darajasining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi "Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi faoliyatini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 274-son qarorida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining Axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2025-yil 1-iyuldagi 37-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilik joriy etilishi istiqbolda innovatsion texnologiyalar asosida iqtisodiy sohalardagi boshqaruv tizimini takomillashtirish asosida tabiiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashda asosiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlash imkonini yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy ilmiy va amaliy natijalari 4 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya ishi mavzusi bo'yicha jami 6 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta, shundan nufuzli xorijiy jurnallarda 3 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 123 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti belgilangan, tadqiqot mavzusining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati izohlab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Innovatsion texnologiyalar asosida iqtisodiy sohalardagi boshqaruv tizimining nazariy-uslubiy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida kosmik faoliyatning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va nazariy jihatlar, ilg'or xorijiy tajriba va undan foydalanish masalalari, kosmik monitoringning iqtisodiy sohalarga ta'siri tizimlashtirilgan. Shu bilan bir qatorda, kosmik monitoringni turli sohalarga qo'llanish strategik maqsadlari ko'rsatib berilgan.

“Monitoring” atamasi lotincha “monitor” soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, kuzatish, ogohlantirish deb tarjima qilinadi. Ushbu konsepsiya asosida monitoring favqulodda vaziyatlarni tezkor ogohlantirish tizimi sifatida talqin etiladi.

Tabiatshunoslikda “monitoring” atamasi BMTning atrof-muhit boʻyicha konferensiyasidan oldin paydo boʻlgan (Stokgolm, 1972)⁵. Bunday tizim boʻyicha birinchi takliflar SSOLE (ekologik muammolar boʻyicha ilmiy qoʻmita) tomonidan ishlab chiqilgan. Monitoringning birinchi talqinining asosiy elementlari Mann (1973) tomonidan tasvirlangan. Monitoring orqali u faqat faol harakatlar elementlarisiz atrof-muhit holatini takroriy kuzatish tizimini nazarda tutgan.

Monitoringning yanada aniq taʼrifini Yu.A.Isroil⁶ kiritdi. Uning gʻoyalariga koʻra, monitoring bu inson faoliyati taʼsiri ostida biosfera holatidagi oʻzgarishlarni aniqlashga imkon beradigan kuzatuv tizimi edi.

Monitoring quyidagi asosiy qismlardan iborat:

tabiiy muhit va atrof-muhit holatiga taʼsir qiluvchi omillarni kuzatish;

tabiiy muhit holatini prognoz qilish va baholash.

Koʻp maqsadli axborot tizimi sifatida monitoringning asosiy vazifalari atrof-muhit holatini kuzatish, uning holatini baholash va prognozlash, insonning atrof-muhitga taʼsiri darajasini aniqlash, ushbu taʼsir manbalari va omillarini aniqlashdir.

Ushbu vazifalarga muvofiq, asosiy monitoring obyektlarini ham aniqlash mumkin: ifloslanish manbalari va atrof-muhitga taʼsir qilish; taʼsir omillari; jismoniy, geokimyoviy va boshqa koʻrsatkichlar bilan tavsiflangan atrof-muhit holati; yirik tizimlar va umuman biosfera va nihoyat, inson tanasining turli taʼsirlarga reaksiyasini aks ettiruvchi aholining salomatlik holati.

Miqyosga qarab, odatda uchta monitoring darajasi mavjud: mahalliy, mintaqaviy, global. Darajalardan tashqari, monitoringning 6 turi mavjud: fizik, kimyoviy, geomorfologik, biologik, tuproq, geo(eko)tizimi.

Fizikada geliofizik (quyosh, uning faolligi, undagi fizik jarayonlar va ularning yerga taʼsirini kuzatish imkonini beradi), magnetometrik (yer va atmosferaning magnit maydonini kuzatish), ionosfera (yuqori atmosfera holatini kuzatish), meteorologik, gidrologik, okeanologik, seysmologik, radiometrik va boshqa monitoring turlari.

Kimyoviy monitoring gidrokimyoviy (yer usti va yer osti suvlarining kimyoviy tarkibini kuzatish), biogeokimyoviy (tuproqning yuqori qatlamini biologik va kimyoviy kuzatish) va boshqalarni oʻz ichiga oladi.

Geologik va geomorfologik monitoringga geodeziya, qiyalik jarayoni, eroziya va boshqa monitoring turlari kiradi.

Biologik monitoring botanika (oʻsimliklarni kuzatish), zoologik (hayvonot dunyosi uchun), mikrobiologik va yovvoyi tabiat bilan bogʻliq boshqalarga boʻlinadi. Tuproq monitoringi tuproq sifatini, ularning ifloslanishini kuzatishni oʻz ichiga oladi.

Yer monitoringi – bu yerdagi oʻzgarishlarni oʻz vaqtida aniqlash, ularni baholash, prognozlash, salbiy jarayonlarning oqibatlarini oldini olish va bartaraf etish uchun yerning holatini kuzatish tizimi. Yer monitoringi obyekti - bu yerga egalik

⁵ 1972-yil. BMTning Atrof-muhit boʻyicha ixtisoslashgan konferensiyasi

⁶ Израэль Ю.А. Мониторинг состояния и регулирования качества природной среды. Вопросы географии. Вып. 108, М., Мысль, с.64-74

shakllaridan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining butun yer fondi. Yer monitoringining asosiy vazifalari:

yer fondi holatidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash, ularni baholash, prognoz qilish va salbiy jarayonlarning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

davlat yer kadastrini axborot bilan ta'minlash, boshqa tabiiy muhit monitoringi va kadastrlari, tabiatni oqilona boshqarish;

yerdan foydalanish va muhofaza qilishni nazorat qilish.⁷

Yer monitoringining tasnifi, quyidagilardan iborat:

tabiiy landshaftlar, ma'muriy-hududiy tuzilmalarning chegaralari va hududlari, yerdan foydalanish va yer egaligi (yerlar, dalalar, uchastkalar);

keng ko'lamli parametrlarga muvofiq tuproq sharoitlari (suv eroziyasi, cho'llanish, yaylovlarda tuproq degradatsiyasi, suv toshqini, botqoqlanish, sho'rlanish, ortiqcha o'sish, haydaladigan yerlarning ko'payishi, tuproq agregatlarining holati, deflyatsion strukturasiz chang hosil bo'lishi birlashtirilgan tuproq yuzasi deb ataladigan sirt, gumus zaxiralari, kislotalilik, makro va mikroelementlarning tarkibi, og'ir metallar, tarqoq kimyoviy elementlar, radioaktiv elementlar va boshqa toksikantlar);

geologik muhitning holati, relef, gidrografik tarmoq (o'zgaruvchan qumlar, ko'chkilar, sel oqimlari, zilzilalar, daryo jarayonlari va boshqalar natijasida yuzaga keladigan relef shakllari;

suv balansi, yer osti suvlarining kimyoviy, gidrobiologik tarkibi rejimlari, dengizlar, ko'llar, suv omborlari, daryolar va boshqalar);

suv toshqini, botqoqlanish, suv toshqini, suv zonalariga tutash yerlarni drenajlash jarayonlarining dinamikasi;

kriogen jarayonlar natijasida yuzaga kelgan hudud sharoitlari, buzilgan yerlar, shu jumladan mavjud va sarflangan foydali qazilmalar, chiqindi uyumlari, suv olish va qazib olish ta'sirida yer yuzasining cho'kishi;


vegetatsiya sharoitlari (ekinlar, pichanzorlar, yaylovlar, o'rmonlar, ko'p yillik ko'chatlar va boshqalar);

ishlab chiqarish obyektlarining salbiy ta'siriga uchragan yerlarning holati (sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalarining tozalash inshootlari, meliorativ tizimlar, transport, go'ng saqlash joylari, o'g'itlarni kompostlash joylari, poligonlar, yoqilg'i omborlari, quyma o'g'itlar omborlari, suyuq o'g'itlar, transport vositalari to'xtash joylari, hayvonlarni dafn etish joylari, radioaktiv va fiziologik faol kimyoviy chiqindilarni ishlab chiqarish joylari).⁸

Iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy biznes-jarayonlari majmuasini va innovatsion jarayonlarni boshqaruv funksiyasiga integratsiyalashni ko'rib chiqamiz (1-rasm).

⁷ Madrahimov K. Космический мониторинг в сельском хозяйстве: совершенствование управления для устойчивого развития, Conference – Virtual International Conferences Hosted online from Dubai, U. A. E.

⁸ Madrahimov K. Kosmik monitoring natijalari orqali raqamli qishloq xo'jaligini boshqarishning zamonaviy jihatlari, Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot 10



1-rasm. Iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy jarayonlar o'rtasidagi bog'liqliklar sxemasi va innovatsion jarayonlarni integratsiyalash⁹

Innovatsion infratuzilmani o'z ichiga olgan sanoat korxonasining tashkiliy-boshqaruv tizimi jarayonli modelini ko'rib chiqishda, ushbu innovatsion jarayonlar bir-biridan ajratilgan holda bajarilishi mumkin emasligini tushunish zarur. Xuddi shuningdek, innovatsion infratuzilmaning faoliyati ham korxonaning asosiy va yordamchi jarayonlaridan uzilgan holda amalga oshirilmaydi.

Innovatsion faoliyatning rivojlanish darajasi va sanoat korxonasining yuqori likvidlilikka ega bo'lgan raqobatbardosh yangi mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati nafaqat innovatsion infratuzilmaning o'zini rivojlanish darajasiga, balki innovatsion jarayonlarning korxonaning boshqa muhim jarayonlari bilan o'zaro ta'sir darajasiga ham bog'liq.


Iqtisodiy faoliyat innovatsion infratuzilma modeliga ta'sir etuvchi turli omillar ko'pligi va ularning yuqori darajada o'zgaruvchanligi tufayli universal model yaratish, bir tomondan, juda murakkab, ikkinchi tomondan esa kam samarali hisoblanadi. Shu munosabat bilan iqtisodiy faoliyat innovatsion infratuzilmasini shakllantirish jarayonini tahlil qilish, innovatsion infratuzilmani integratsiyalashgan holda uni boshqarish tizimini shakllantirish algoritmini ishlab chiqishga harakat qilish va unda ichki hamda tashqi omillarni samarali hisobga olishga yordam beradigan asosiy bosqichlarni aks ettirish zarur.

Endi esa iqtisodiy faoliyat innovatsion infratuzilmasini modellashtirish va shakllantirish bosqichlarini batafsil ko'rib chiqamiz.

Innovatsion infratuzilmani shakllantirish yetarlicha mehnat talab qiladigan va murakkab jarayon hisoblanadi. Bu, eng avvalo, tajribaning yetishmasligi va malakali menejerlarning kamligi bilan bog'liq bo'lib, ular Rossiya sanoat korxonalarini boshqaruv tizimini chuqur isloh qilish va innovatsion jarayonlarni

⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

korxonaning asosiy faoliyat sohalariga integratsiyalash orqali rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqishga qodir bo'lishi kerak. Innovatsion infratuzilmani shakllantirishda tashkilot-funksional modellash asosiy rol o'ynaydi.



2-rasm. Iqtisodiy faoliyat innovatsion infratuzilmasini shakllantirish algoritmi¹⁰

Yer monitoringining tuzilishi va ma'muriy hududiy bo'linish yerlardan maqsadli foydalanish bilan belgilanadi.

Ma'muriy-hududiy iyerarxiya bo'yicha yer monitoringining tuzilishi quyidagi darajalarga ega:

O'zbekiston Respublikasi hududidagi yerlarining monitoringi;
tuman va shaharlarning yerlarni monitoring qilish.

Ma'muriy-hududiy bo'linishning har bir darajasida yer monitoringi tuzilmasi yer toifalariga mos keladigan quyidagi quyi tizimlarni nazarda tutadi:

qishloq xo'jaligi yerlarini monitoring qilish;
aholi punktlari yerlarini monitoring qilish;

¹⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa obyektlarning yerlarini monitoring qilish;

ekologik, sog'liqni saqlash, tarixiy va madaniy yerlarni monitoring qilish;

o'rmon fondi yerlarining monitoringi;

suv fondi yerlarini monitoring qilish;

zaxira yerlarini monitoring qilish.¹¹

Innovatsion infratuzilmani modellash tirish deganda sanoat korxonasining asosiy innovatsion va biznes-jarayonlarini formallashtirish orqali biznes-modellash tirish tushuniladi.

Dissertatsiyaning **“Innovatsion texnologiyalar asosida iqtisodiy sohalardagi boshqaruv tizimini hozirgi holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida qishloq xo'jaligi yer maydonlarini hisoblash va ularning aniq chegaralarini belgilanganlik, qishloq xo'jaligi yerlarini inventarizatsiya qilinganligi hamda haqiqiy ekin ekilgan maydonlarni aniqlash bo'yicha kosmik monitoring orqali amalga oshirilgan ishlar, suv omborlarining loyqa oqiziqlar bilan to'lib borish dinamikasi va suv sathi rejimi hamda akvatoriyasini kosmik monitoring orqali amalga oshirilgan ishlar, aerokosmik texnologiyalardan foydalangan holda yerdan foydalanish va o'rmonlarni inventarizatsiya qilingan ishlar keltirib o'tilgan.

Qishloq xo'jaligi yer maydonlarini hisoblash va ularning aniq chegaralarini belgilash, qishloq xo'jaligi yerlarini inventarizatsiya qilish hamda haqiqiy ekin ekilgan maydonlarni aniqlash bo'yicha kosmik monitoring tizimini joriy etish.

Qishloq xo'jaligi yer maydonlarini aniq chegaralarini belgilash, qishloq xo'jaligi yerlarini inventarizatsiya qilish hamda haqiqiy ekin ekilgan maydonlarni aniqlash.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui va qishloq xo'jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2020 yil 12 dekabrda 794-son qarori bilan belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida “O'zbekkosmos” agentligi va uning Fransiyalik hamkori Airbus kompaniyasi bilan birgalikda Fransiya hukumatining “FASER” grant dasturi doirasida 1 mln. yevroga teng moliyalashtirish manbalarini jalb qilgan holda “Raqamli Samarqand” sinov loyihasini amalga oshirish ishlari boshlangan.

Mazkur loyiha Airbus kompaniyasining to'g'ridan-to'g'ri ko'magi va ishtirokida 18 oy davom etishi va bunda Samarqand viloyatining Jomboy, Oqdaryo va Payariq tumanlarining 2 ming 230 kv.km bo'lgan qishloq xo'jaligi ekinlari, aynan, paxta va bug'doy ekinlarini sun'iy yo'ldosh apparatlari yordamida Yerni masofadan zondlash orqali olingan va ishlov berilgan ma'lumotlarini tahlil qilgan holda sinov-tadqiqot ishlari o'tkazildi.

Bugungi kunda O'zbekistonda qishloq xo'jaligi tarmog'ining iqtisodiy rivojlanishi tez sur'atlarda amalga oshayotganligi ushbu sohaning mamlakat iqtisodiyotida jumladan, yalpi ichki mahsulotdagi o'rni yuqori ekanligi bilan izohlanadi. Biz tomondan mazkur tarmoqdagi iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishda vertikal hamda gorizontal tahlil usullaridan foydalanilgan. 2.1-jadval ma'lumotlaridan shuni aytish mumkinki, o'rganilayotgan 2014-2023 yillarda qishloq, o'rmon va baliq

¹¹ Madrakhimov K. Methodological aspects of the development of a management model in the field of rural agriculture based on data from space monitoring. American Journal Of Agriculture And Horticulture Innovations

xujaligi tarmog‘ining o‘sishi kuzatilgan va manfaatdorlik koeffitsiyenti 1,17 ga teng bo‘lganligini ko‘rish mumkin.

1-jadval

**O‘zbekiston Respublikasining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish
ko‘rsatkichlari¹²**

Yillar	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	Manfaatdorlikning o‘rtacha o‘zgarish koeffitsienti
YaiM (mlrd. so‘m)	186829,5	221350,9	255421,9	317476,4	426641,0	532712,5	605514,9	738425,2	896617,9	1066569,0	1,19
Qishloq o‘rmon va baliq xo‘jaligi (mlrd. so‘m)	81794,3	99604,6	115599,2	148199,3	187425,6	216283,1	250250,6	303415,5	345191,7	404648,6	1,17
Sanoat mahsulotlari hajmi (mlrd. so‘m)	84011,6	97598,2	111869,4	148816,0	235340,7	322535,8	368740,2	456056,1	553265,0	655821,9	1,22
Transport va aloqa (mlrd. so‘m)	4195,1	4772,8	5579,4	7168,1	8648,6	9102,4	10303,1	11881,7	14478,7	17890,1	1,15
Xizmatlar sohasi (mlrd. so‘m)	68032,1	78530,4	97050,0	118811,0	150889,8	193697,8	219978,5	284388,1	366891,0	470286,5	1,21
Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	20060,4	25423,1	29413,9	34698,0	51129,3	71156,5	88130,3	107492,7	130790,9	149864,1	1,22
Qishloq o‘rmon va baliq xo‘jaligida bandlar soni (ming kishi)	3528,9	3601,7	3646,7	3671,3	3537,2	3544,6	3499,2	3414,7	3438,7	4262,64	1,02

O‘z navbatida bu shuni anglatadiki, ushbu davrda mamlakatda YAIM manfaatdorlik o‘rtacha koeffitsiyenti ham 1,19 ga teng bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Qolaversa ushbu o‘rganilayotgan davrda sanoat tarmog‘ida manfaatdorlik koeffitsiyenti 1,22 ga teng bo‘lganligini ko‘rish mumkin.

Bu ham shuni anglatadiki, bugungi kunda qishloq, o‘rmon va baliq xujaligi tarmog‘ining tez sur‘atlar bilan ortib borishi va barcha boshqa yirik tarmoqlardanda tez rivojlanish va manfaatdorlik ko‘rsatkichiga ega hisoblanmoqda. Keltirilgan davrda

¹² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

doimiy aholi sonining ortib borishi manfaatdorlik o'rtacha koeffitsiyenti 1,02 ga teng bo'lganligini e'tiborga oladigan bo'lsak, aynan qishloq xujaligi tarmog'ining iqtisodiy ko'rsatkichlari doimiy ortib borishi va shu bilan birga mazkur tarmoqda ham aholi bandligi bir muncha kamayayotganligi albatta yaxshi ko'satkichdir.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasida yer maydonlari bo'yicha ma'lumot¹³

Yer turi	Maydoni (gektar)	Izoh
Umumiy yer maydoni	44 897 800	Barcha yerlarni qamrab oladi
Qishloq xo'jaligi yer maydoni	25 000 000	Qishloq xo'jaligi uchun ajratilgan barcha yerlar
Sug'oriladigan yerlar	4 300 000	Asosan paxta, g'alla va bog'dorchilik uchun foydalaniladi
Yaylovlar va cho'l hududlari	15 000 000	Chorvachilik va yaylovlar uchun mo'ljallangan
Bog'dorchilik va uzumchilik	300 000	Meva-sabzavot va uzum yetishtirish hududlari
O'rmonzorlar va tabiiy hududlar	1 000 000	Ekologik ahamiyatga ega tabiiy hududlar

Bugungi kunga kelib, loyihaning uchta bosqichi doirasida Airbus kompaniyasi vakillarining respublikamizga tashrifi mobaynida Samarqand viloyatining Jomboy, Oqdaryo va Payariq tumanlarining barcha qismiga (2 ming 230 km.kv) kosmik suratlar yuklab olinib, bu ma'lumotlarni yanada mustahkamlash maqsadida joyiga chiqqan holda o'rganishlar va fermerlar bilan suhbatlar-seminarlar o'tkazilgan. Mazkur tadbirlar natijasida qabul qilingan ma'lumotlarni tahlil qilish orqali mazkur hududlarda ekilgan ekinlar bo'yicha ma'lumotlarni raqamlashtirilib, turlari bo'yicha klassifikatsiya qilindi.

3-jadval

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi yerlarida ekiladigan ekin turlari bo'yicha ma'lumot¹⁴

Ekin turi	Yetishtiriladigan maydon (gektar)	Izoh
Paxta	1,000,000	Sug'oriladigan yerlar hisobidan yetishtiriladi, iqtisodiy ahamiyatga ega
G'alla (bug'doy va arpa)	1,300,000	Ichki iste'molga xizmat qiladigan asosiy oziq-ovqat manbasi
Meva-sabzavotlar	250	Ichki bozor va eksport uchun keng miqyosda yetkazib beriladi
Sabzavotchilik va kartoshka	120	Asosan bog'dorchilik va sug'oriladigan yerlarda yetishtiriladi

¹³ <https://data.egov.uz> O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar portalidan olingan ma'lumotlar

¹⁴ <https://data.egov.uz> O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar portalidan olingan ma'lumotlar

Kelgusida ushbu “O‘zbekkosmos” agentligi mazkur loyihani Respublikamizning 4 ta viloyatida amalga oshirishni rejalashtirgan.

4-jadval

Samarqand viloyatida qishloq xo‘jaligi yerlarida ekinlarning turlari ko‘rinishi¹⁵

Klassifikatsiya	Tuman			Jami (gektar)
	Jomboy	Oqdaryo	Payariq	
Bug‘doy	10 292	11 464	11 661	33 418
Suv	398	350	620	1 368
O‘rmonlar	2 237	1 765	1 873	5 874
Bog‘lar	6 827	5 562	7 782	20 171
Boshqa ekinlar	1 226	0	18 309	19 535
Yaylov yerlar	8 053	164	30 256	38 473
Issiqxonalar	8	26	22	56
Butalar	2 435	642	4 246	7 324
Bino va inshootlar	14 039	10 300	18 338	42 677
Uzumzorlar	444	246	12 958	13 648
Ekin ekish uchun mo‘ljallanmagan bo‘sh yerlar	306	440	402	1 149
Vaqtinchalik foydalanilmayotgan qishloq xo‘jaligi yerlari	300	25	1 878	2 203
Jami:	46 565	30 984	108 345	213 103

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Chorvoq suv ombori atrofidagi tog‘ va tog‘ oldi hududlarda o‘simlik qoplamining qisqarishini oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 6-avgustdagi 499-sonli qarori va mazkur qaror bilan tasdiqlangan 1-ilovaning 12-bandi bilan sun‘iy yo‘ldosh apparatlari yordamida Yerni masofadan zondlash va kosmik monitoring tizimini joriy etish orqali noqonuniy qurilish obyektlarini aniqlash, hamda geoaxborot texnologiyalari (GAT) monitoring platformasini joriy etish kabi maqsadli vazifalar yuklatilgan.

“O‘zbekkosmos” agentligi tomonidan sun‘iy yo‘ldosh apparatlari orqali o‘ta yuqori aniqlikdagi kosmik suratlar yuklab olindi va GAT monitoring platformasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi tomonidan taqdim etilgan Chorvoq suv ombori hamda uning atrofidagi tog‘ va tog‘

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui va qishloq xo‘jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020 yil 12 dekabrda 794-son qarori ijrosi yuzasidan “O‘zbekkosmos” agentligidan olingan ma’lumotlar

oldi hududlarida joylashgan barcha turdagi turar joylar, xususi va ko'p qavatli binolarning kadastr ma'lumotlari GAT monitoring platformasiga yuklab olinib, hozirga qadar 12 000 dan ortiq obyektlar tahlil qilindi.

Ushbu Qarorning 4 va 5-bandlari bilan o'rmonlarning tur tarkibini aniqlash, nazorat qilish maqsadida kosmik monitoring tizimi va geoaxborot texnologiyalari (GAT) monitoring platformasini joriy etish orqali noqonuniy daraxt kesilishini aniqlash, o'rmonlarni tiklash jarayonlarini kuzatish va nazorat qilish bo'yicha "O'zbekkosmos" agentligi va O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi mutaxassislari tomonidan 2021-yil 9-dekabr kuni Bo'stonliq tumanida joylashgan o'rmon fondiga kiruvchi 2411 gektarga teng madaniy o'rmonlarning konturlari raqamlashtirildi va tahlil qilindi.

Yer uchastkalaridan samarali foydalanish tizimini yo'lga qo'yish, yerlar, ayniqsa, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar talon-toroj qilinishining oldini olish, yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallash va ulardan noqonuniy foydalanish holatlarini barvaqt aniqlash, sohada raqamlashtirish jarayonlarini olib borish, aniqlangan ma'lumotlar yuzasidan tegishli mas'ul tashkilotlarni xabardor etish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yer uchastkalaridan foydalanishda davlat nazorati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 22-fevraldagi PQ-138-son qarorining 7 bandi bilan "O'zbekkosmos" agentligi, Kadastr agentligi, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2022-yil yakuniga qadar sinov tariqasida Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek va Yunusobod tumanlari hamda Toshkent viloyatining Qibray va Toshkent tumanlarida o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalarini hamda noqonuniy bino va inshootlarni kosmik suratlarni qayta ishlash orqali aniqlash vazifasi yuklatilgan.

Hozirgi kunda, Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek va Yunusobod tumanlari hamda Toshkent viloyatining Qibray va Toshkent tumanlariga yuqori aniqlikdagi suratlar yuklab olindi va kosmik suratlarni qayta ishlash orqali o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalarini hamda noqonuniy bino va inshootlarni aniqlash ishlari amalga oshirilmoqda. Dastlabki amalga oshirilgan kosmik monitoring natijalariga ko'ra, Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek va Yunusobod tumanlarida ehtimoliy 1500 ga yaqin o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalari hamda noqonuniy bino va inshootlar aniqlandi.

Yuqorida keltirilgan Prezident qarori bilan Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek va Yunusobod tumanlari hamda Toshkent viloyatining Qibray va Toshkent tumanlari kesimida amalga oshirilgan kosmik monitoring natijasiga ko'ra, yil yakuniga qadar Prezident administratsiyasiga ushbu amaliyotni respublika miqyosida joriy etish vazifasi yuklatilgan.

Daryolar tabiiy sharoitda ma'lum miqdorda qattiq zarralarni oqizadi. Bu zarrachalar o'z o'lchamlariga bog'liq holda suv oqimida muallaq holatda yoki o'zan tubida sudralib harakat qiladi. Ana shularni hisobga olgan holda oqiziqlar ikki turga bo'linadi: muallaq va suv osti oqiziqlari. Oqiziqlar suv omborida qisman yoki to'liq muallaq holatini yo'qotib cho'kadi va sekin-asta uning sig'imini to'ldiradi. Suv omborining oqiziqlar bilan to'lish jarayoni loyqa bosish deb ataladi.

Suv omborida oqiziqlarning cho'kish jarayoni va loyqa qatlamning paydo bo'lishi suv omborining o'lchamlari va shakliga, qirg'oqlarining turg'unligiga, daryo

oqimi rejimiga, daryo olib kelayotgan oqiziqlarning granulometrik tarkibiga, suv omborining suv bilan to'lishi va bo'shatilishi tartibiga va boshqa bir qator omillarga bog'liq.

Har qanday suv omborini loyihalashda va ulardan amalda foydalanishda bir qancha xarakterli suv sathlari nazarda tutiladi. Ular quyidagilardan iborat:

me'yordagi suv sathi;

foydasiz hajmning suv sathi. Nisbatan yirik bo'lgan suv omborlarida ma'lum miqdordagi suvdan amalda foydalanish imkoni bo'lmaydi. Bu suv miqdori foydasiz suv hajmi deyiladi;

ishchi suv sathlari. Me'yordagi suv sathi bilan foydasiz hajmning suv sathi oralig'iga tegishlidir;

eng yuqori loyiha suv sathi. Suv omborida to'plangan suv shu sathga yetguncha uning to'g'oniga hech qanday ziyon yetmaydi. Yo'l qo'yilishi yoki ko'tarilishi mumkin bo'lgan suv sathi. Bu suv sathini uzoq saqlash o'ta xavfli bo'lib, to'g'onning mustahkamligiga putur yetkazadi. Suv sathlariga bog'liq holda suv omborlarining to'la suv sig'imi foydali va yuqorida aytib o'tilganidek, foydasiz hajmlardan iborat bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi "Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 274-sonli qaroriga muvofiq kosmik monitoring ishlarini amalga oshirish davlat va boshqaruv organlarini kosmik suratlar bilan ta'minlash, shuningdek kosmik texnologiyalarini qo'llash orqali ijtimoiy-iqtisodiy, ilm-fan, mudofaa va xavfsizlik sohalarida kosmik faoliyat natijalaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi "O'zbekkosmos" tizimida Kosmik monitoring va geoaxborot texnologiyalari markazi tashkil etildi.¹⁶

Ushbu qaror bilan tasdiqlangan Kosmik monitoring va geoaxborot texnologiyalari markazining 2022 yil yakuniga qadar amalga oshiradigan loyihalari bo'yicha "Yo'l xarita"sga muvofiq Suv xo'jaligi sohasidagi Chimqo'rg'on va Janubiy-Surxon suv omborlarining loyqa oqiziqlar bilan to'lib borish dinamikasini, suv sathi rejimini hamda akvatoriyasini kosmik monitoring qilish, shu jumladan, monitoring natijalari asosida noqonuniy qurilish obyektlari bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni vakolatli davlat organlariga taqdim etish vazifasini bajarish asnosida xorij tajribasi o'rganildi va bir qator tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari o'rnatildi. Xususan, Jahon bankining suv resurslarini boshqarish loyihasi, Qozog'iston Respublikasining "Qazaqstan G'arvish Saparv" milliy kompaniyasi, Finlyandiyaning "ICEYE" kompaniyasi, International water management institute Markaziy Osiyo mintaqaviy vakolatxonasi, "UZGIP" MCHJ (oldingi "Sredazgiprovdoklopok") instituti va Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 20 maydagi "Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 274-son qarori. <https://lex.uz/docs/6026003>

